




Mazkur to'plamda **2025-yil kuzgi** attestatsiya sinovlariga tayyorgarlik jarayonida o'qituvchilar uchun **tushgan test savollari** jamlangan.

✍ Feruza Ikramova, Dilnoza Asadova

1. Quyida o'quvchi ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning ijobiy va salbiy tomonlari berilgan bo'lib, qanday ta'sir usuli haqida gap ketayotganini aniqlang

Ijobiy

O'quvchii kalajagini tasavvur qilib, o'z oldagi maqsad qo'yadi va unga erishish uchun harakat qiladi

Salbiy

O'quvchiga amalga oshiradigan yoki juda katta maqsad qo'yilsa, u umidsizlaikka tushishi mumkin

- A) Rag'batlantirish orqali ta'sir o'tkazish
- B) Istiqbol orqali ta'sir o'tkazish*
- C) Talab orqali ta'sir o'tkazish
- D) Jamoatchilik fikri orqali ta'sir o'tkazish

2. **Tovushning xususiyatlari berilgan qatorni toping**

- 1) **Tovush kuchi**
- 2) **Tovush uchuvchanligi**
- 3) **Tovushning ixchamligi**
- 4) **Tovushning hajmi**
- 5) **Tovushning hatakatchanligi**

- A) 2, 3, 4, 5
- B) 1, 3, 4
- C) 2, 3, 4
- D) 1, 2, 3, 5 *

3. **Moslashtiring.**

- 1. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish
- 2. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash
 - A) Ta'limning aniq va o'lchanadigan natijalarini, shuningdek ushbu natijalarga erishishda aniq muddatlar uchun vazifalarni aniqlash va ularni rejalarda shakllantirish
 - B) Ta'lim muassasaning ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq o'quvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini belgilash va o'rnatish
 - C) O'quvchilarga turli xil tahdidlarning mohiyati, favqulodda vaziyatlarda protseduralarning mazmuni va harakatlar ketma-ketligini tushuntirish

- A) **1-A, 2-C.**
- B) **1-B, 2-A.**
- C) **1-A, 2-B.**
- D) **1-B, 2-C***

4. Pedagog o'quvchilarning Temuriylar davridagi ilmiy yutuqlarni hozirgi zamon bilan solishtirib, xulosa chiqarishlarini maqsad qilib qo'ydi.

Bolalarning salohiyati har xil ekanligini hisobga olgan holda ularga turli murakkablikdagi tarqatma materiallar bilan ishlash imkoniyatini yaratib, maqsadga erishdi. Bunda pedagog qaysi mehnat harakatlarini amalga oshirdi?

- A) **O'quvchilarning jamoaviy hamda loyihaviy ishlarini tashkil etish**
- B) **Dars maqsadlari asosida induktiv va deduktiv usullarni qo'llash**
- C) **O'quvchilarni darsga qiziqitirishda turli usul va uslublardan foydalanish**

D) Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilash*

5. Agar o'qituvchi darsda test va viktorinalar, loyiha va amaliy ishlar o'tkazishda mezonlar asosida baholashni qo'llasa, buning uchun "Google Classroom, Check-list, Feedback forms" lardan foydalansa, o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etishning qaysi mehnat harakatlarini amalga oshirgan hisoblanadi?

- A) **O'quvchilar ta'lim jarayonida to'qnashgan qiyinchiliklarini kuzatish va qayd etish**
- B) **Ta'lim sifatini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish**
- C) **Ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish***
- D) **O'quvchilar tomonidan biliminni egallash darajasini muntazam ravishda kuzatib borish**

6. Quyida berilganlardan o'qituvchining "Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o'quv rejalarini ishlab chiqish" mehnat harakatlariga tegishli bo'lgan javob variantini aniqlang

- 1) DTSda belgilangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar bilan tanishish
- 2) Sinflar kesimida fanni o'qitish mazmuni, vaqt taqsimoti va asosiy mavzularni tahlil qilish
- 3) Fanlararo bog'liqlik va integratsiya imkoniyatlarini ko'rib chiqish
- 4) Yangilangan standartlar, ta'lim siyosatlarini, fan bo'yicha ilg'or metodlar asosida rejani yangilab borish
- 5) Individual va inklyuziv ta'lim ehtiyojlari asosida dars o'tish

- A) 2, 3, 5.
- B) 1, 2, 3, 4*
- C) 1, 2, 5.
- D) 2, 3, 4, 5

7. Mulohaza yuritib, matnda pedagogik kreativlik (ijodkorlik)ning qaysi sifati haqida gap ketayotganini aniqlang:

"Pedagog o'z fanidan tashqari adabiyot, tarix, psixologiya, texnologiya yoki san'atdan misollar keltirib, o'quvchida ta'lim olishga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Har qanday vaziyatda boy lug'at zahirasi, ilmiy va badiiy uslubni o'rinli qo'llaydi"

- A) **Ijtimoiy yo'nalganlik**
- B) **Eruditsiya (bilag'onlik)***
- C) **Hissiyotga boylik**
- D) **Refleksiya qobiliyati**

8. **Pedagog sinfdagi umumiy maqsad va talabalarni barcha o'quvchilar uchun bir xil tarzda amalga oshirdi. Qoidalar va intizomda izchillikni ta'minlaydi. Bunday vaziyatda pedagogik dilkashlikning qaysi xususiyati namoyon bo'ladi?**

- A) Pedagog har bir o'quvchining hurmatini qozona olishga ishonch hosil qilishi
- B) O'quvchilar bilan munosabatda masofani saqlash kerakligini yodda tutishi
- C) Sinf jamoasiga nisbatan bir qolipdagi fikrlarning muayyan tizimga ega bo'lishi *
- D) O'quvchilar bilan erkin muloqot qila olishi va har biriga alohida yondashishi

9. Pedagog o'z darslarida ko'z bilan muloqot qilish, samimiy tabassum, hayrat, qiziqish usullarini keng qo'llaydi. Har bir o'quvchiga nazar tashlash orqali uning faolligini kuchaytiradi. U o'z harakatlari va yuz ifodasi aytayotgan so'zlariga mos kelishi lozimligini

unutmaydi.

Shunda o'qituvchi pedagogik texnikaning qaysi usulini mahoratli qo'llagan hisoblanadi?

- A) **Ta'lim-tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarish***
- B) **O'quvchilar bilan muloqot jarayonini to'g'ri tashkillashtirish**
- C) **Mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyat**
- D) **Nutq texnikasini bilish, o'z o'rnida qo'llash**

10. O'quvchilarning xarakteri, ichki dunyosini bilish, do'stona muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish yo'llari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini aniqlang:

- 1) O'quvchining xarakteri va qiziqishlarini aniqlash
- 2) O'quvchi o'zini erkin ifoda etishi uchun ishonchli munosabat o'rnatish
- 3) O'quvchining noto'g'ri xatti-harakatlarini keskin qoralash 4) O'quvchining shaxsiy kechinmalarini tinglash

A) 1, 2, 4*

B) 1, 3.

C) 2, 3, 4.

D) 2, 3

11. O'qituvchi o'quvchi bilan hurmat va ishonch, ochiqlik va samimiylilik, tinglay olish tamoyillariga asoslangan holda munosabatda bo'ladi. Har bir muloqot orqali ta'limiy, tarbiyaviy yoki motivatsion maqsadga erishishga harakat qiladi.

Bu orqali pedagog qanday qobiliyatini namoyon qiladi?

- A) **Muloqot qilish qobiliyati***
- B) **Kinestetik qobiliyat**
- C) **Shaxsning ichki qobiliyati**
- D) **Mantiqiy qobiliyat**

12. Bu fikrlash jarayoni orqali pedagog muammolarni hal etish yo'llarini izlaydi. O'z pedagogik faoliyati samaradorligini tahlil qiladi. Bilimlarni faqat egallash emas, balki ulardan to'g'ri foydalanish imkoniyatlarini qidiradi. Standart yo'llardan tashqari yangi yechimlarni topishga intiladi.

Berilgan ta'rif nima haqida ekanligini aniqlang.

- A) **Kooperativ refleksiya**
- B) **Shaxsiy refleksiya**
- C) **Intellektual refleksiya***
- D) **Kommunikativ refleksiya**

13. Nutqning asosiy xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini belgilang:

- 1) Nutqning to'g'riligi va ravonligi
- 2) Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi
- 3) Nutqning mantiqiyligi
- 4) Nutqning tozaligi va ifodaliligi
- 5) Nutqning o'ta mulozamatiligi

A) 1, 3, 5.

B) 1, 2, 3, 4*

C) 1, 2, 4, 5.

D) 2, 3, 4

14 Atamalarni ta'riflari bilan moslashtiring

1. Bilim

2. Ko'nikma

A) Egallangan bilimlarning aniq xatti-harakatdagi ifodasi, o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga qo'llash usullarini egallash

B) O'quv jarayonining tashqi ifodasi, uning ichki mohiyati, mantig'i, mazmuni uchun qobiq

C) Ma'lum bir fanni nazariy o'zlashtirishni aks ettiradigan inson g'oyalari yig'indisi

1-A, 2-C

1-B, 2-C

1-C, 2-A*

1-A, 2-B

15. Atamalarni ta'riflar bilan moslashtiring.

1. O'qitish

2. Ta'lim

A) O'qitish jarayonida egallagan bilim, ko'nikma malakalar, kompetensiya va fikrlash usullari tizimi;

B) Qo'yilgan maqsadni samarali maqsadga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon

C) Qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan pedagog bilan o'quvchilarning tartiblangan o'zaro harakati

A. 1-A,2-B

B. 1-A,2-C

C. 1-B,2-C

D. 1-C,2-A*

16. Atamalarni ta'rifi bilan moslashtiring.

1. Maqsad

2. Mazmun

A) O'qish jarayonida egallanishi lozim bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, faoliyat, fikrlash usullari

B) Qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.

C) O'qitishning nimaga qodirligini, uning kuchlari kelgusida qay yo'sinda safarbar etilishi

A) 1-B,2-C.

B) 1-A,2-B

C) 1-A,2-C

D) 1-C,2-A*

O'quvchi ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilib, qanday ta'sir usuli haqida gap ketayotganini aniqlang:

Ijobiy	Salbiy
Har bir o'quvchining ichki dunyosi, ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab individual tarbiya usullari qo'llaniladi	O'qituvchi o'quvchining ruhiy holatini to'liq va xolisona anglay olmasa, noto'g'ri xulosa chiqarishi mumkin

17.

A) **Har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini o'rganib, ta'sir o'tkazish ***

- B) Ta'lim va tarbiyada o'quvchilarga rag'batlantirish orqali ta'sir o'tkazish
C) Sinf jamoasining norasmiy yetakchisi orqali o'quvchilarga ta'sir o'tkazish
D) Har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat bilan munosabatda bo'lish

Quyida berilgan maqsad va vazifalar pedagogning oʻz-oʻzini rivojlantirish va kasbiy oʻsish faoliyatining qaysi mehnat harakatlariga toʻgʻri keladi?

Maqsadlar:	Vazifalar:
Ta'lim sifatini oshirish	Ilmiy-nazariy bilimlarni yangilash
Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish, shaxsiy rivojlanish	Psixologik-pedagogik mahoratni doimiy oshirib borish

18.

A)

- A) Zamonaviy axborot texnologiyalarini fanga singdirish
B) O'quvchining yutuqlarini baholash, bahoni asoslab berish
C) Sinfda samarali muloqotni ta'minlash
D) Muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tish *

19. Moslashtiring

1. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish	A) O'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olgan holda rivojlanishiga hissa qo'shadigan ta'lim-tarbiya maqsadlari va vazifalarini belgilash
2. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash	B) O'quvchilar erkin rivojlanishlari va o'zlarini namoyon eta olishlari uchun o'zaro hurmat muhitini yaratish
	C) Dars maqsadlari asosida o'quvchilar uchun erishimli vazifalarni belgilash

- A) **A) 1-A,2-C**
B) **B) 1-B,2-A**
C) **C) 1-A,2-B***
D) **D) 1-C,2-B**

20. Atamalarni ta'rifi bilan moslashtiring.

1. Tashkil etish
A) Qo'yilgan maqsadni samarali amalga oshirish uchun unga zaruriy shaklni taqdim etadigan, aniq mezonlar bo'yicha tartiblangan didaktik jarayon.
B) O'quv jarayonining predmetli qo'llab-quvvatlanishi, yangi materialni o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabalar tomonidan foydalaniladigan obyekt.
C) O'quv jarayonining so'nggi mahsuli, belgilangan maqsadlarning amalga oshganlik darajasi.
2. Natija
A) A) 1-A, 2-C*
B) C) 1-A, 2-B
- B) 1-B, 2-A
D) 1-C, 2-B

21. Ovoz tembrining xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini belgilang

1. Tovushning harakatchanligi
2. Tovushning rang -barangligi

3. Tovushning yorqinligi
4. Tovushning uchuvchanligi
5. Tovushning yumshoqligi

A) 1, 3, 5 B) 1, 2, 3, 4
C) 1, 2, 4, 5 D) 2, 3, 5*

22. Moslashtiring.

1. **Vulgarizm** 2. **Konselyarizm**

- A) Haqorat qilish, qo‘pollik asosida qo‘llaniladigan so‘zlar
- B) O‘rni bo‘lmagan vaziyatlarda rasmiy so‘zlardan foydalanish;
- C) Muayyan kasb yoki soha mutaxassislariga xos bo‘lmagan so‘zlar

A) A) 1-A, 2-C
B) B) 1-B, 2-A
C) C) 1-A, 2-B*
D) D) 1-C, 2-B

23. Bitta sinfda bir o‘quv kuni mobaynida nechta fandan va umumiy vaqti necha soatdan oshmagan holda summativ baholash amalga oshirilishi lozim?

- A) 1 ta fandan ortiq bo‘lmagan va umumiy vaqti 1 soatdan oshmagan holda
- B) 3 ta fandan ortiq bo‘lmagan va umumiy vaqti 5 soatdan oshmagan holda*
- C) 3 ta fandan ortiq bo‘lmagan va umumiy vaqti 3 soatdan oshmagan holda
- D) 2 ta fandan ortiq bo‘lmagan va umumiy vaqti 3 soatdan oshmagan holda

24. Mulohaza yuritib, matnda pedagogik kreativlik (ijodkorlik)ning qaysi sifati haqida gap ketayotganini aniqlang:

“Pedagog o‘z fanidan tashqari adabiyot, tarix, psixologiya, texnologiya yoki san’atdan misollar keltirib, o‘quvchida ta’lim olishga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Har qanday vaziyatda boy lug‘at zahirasi, ilmiy va badiiy uslubni o‘rinli qo‘llaydi”

- A) **Hissiyotga boylik**
- B) **Ijodiy yo‘nalganlik**
- C) **Refleksiya qobiliyati**
- D) **Eruditsiya (bilag‘onlik)***

25. Nutqning mantiqiyligini ifodalovchi asosiy xususiyatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang:

- 1) Tinglovchiga moslashish
- 2) Izchillik
- 3) Sabab-oqibat aloqasi
- 4) Izoh va asos

A) 1,3,5.
B) 1,2,3,4.
C) 1,2,4,5.
D) 2,3,4*

26. Quyida berilgan maqsad va vazifalar pedagogning hamkasblar va ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik faoliyatning qaysi mehnat harakatiga to‘g‘ri keladi?

Maqsadlar

Tarbiyachalar va hamkasb uyg‘unligini ta’minlash; Hamkorlik madaniyatini rivojlantirish;

Vazifalar

Ora-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish, o'qitish jamyoniga faol jalb qilish;

O'quvchining rivojlanishiga oid fikr-mulohaza yig'ish;

- A) **Ziddiyatlarni hal qilish, ijobiy muhit yaratish uchun muloqot o'tkazish**
- B) **O'quvchilarning ta'limdagi qiyinchiliklarini ota-onalarga yetkazish**
- C) **Ta'lim muassasalari bo'yicha mutaxassislar bilan hamkorlik qilish**
- D) **O'quvchilarning ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilish***

27. Quyida o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir etishning ijobiy va salbiy tomonlari berilgan bo'lib, qanday ta'sir usuli haqida gap ketayotganini aniqlang.

Ijobiy

O'quvchi mehnatining, axloqiy xislatlarining qadrlanishini his qilib yanada yaxshi o'qishga harakat qiladi;

Salbiy

Bu usul ba'zilar uchun ko'p, ba'zilar uchun kamroq ishlatilsa, sinfda adolatsizlik hissini uyg'otishi mumkin

- A) **Rag'batlantirish orqali ta'sir o'tkazish***
- B) **Jamoatchilik fikri orqali ta'sir o'tkazish**
- C) **Talab orqali ta'sir o'tkazish**
- D) **Istiqbol orqali ta'sir o'tkazish**

28. Pedagog o'z faoliyatida sinf jamoasida hamjiihatlik va hamkorlik muhitini yaratishga harakat qiladi. Jamoaviy faoliyati orqali o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy sifatlarini rivojlantiradi. Ularda mas'uliyat, yetakchilik va tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bunda o'qituvchi pedagogik texikaning qaysi komponentini mahoratli qo'llagan hisoblanadi?

- A) **Didaktik qobiliyatini**
- B) **Kommunikativ qobiliyatini**
- C) **Konstruktiv qobiliyatini**
- D) **Tashkilotchilik qobiliyatini***

29. Moslashtiring.

1. Jargon.

2. Varvarizm

- A) Muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo'lmagan So'zlar;
- B) Haqorat qilish, qo'pollik asosida qo'llaniladigan so'zlar;
- C) Muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqda o'zga millatlarga xos so'zlarning noo'rin qo'llanilishi;
- A) A) 1-A, 2-C* B) 1-B,2-A. C) 1-A,2-B D) 1-C,2-B

30. Moslikni toping.

1. Kamsitish.

2. Bulling

- A) Kimnidir doim xafa qilishsa, haqoratlashsa, biror narsasini olib, yashirib qo'yishsa, zarar yetkazishsa, turtkilashsa, xo'rlashsa, qo'rqitishsa;

B) Huquqlarni poymol qilish, insonlarning ma'lum bir toifasiga nisbatan ko'r-ko'rona yomon munosabatda bo'lishdir;

C) Odamlarga foyda keltiradigan va evaziga faqat duo olinadigan ishlar

A. 1-A, 2-C

B. 1-B, 2-A*

C. 1-A, 2-B

D. 1-C, 2-B

31. O'qituvchi yangi g'oyalar yaratishga ochiqlik erkin fikrlash muammoga noan'anaviy yondashish tamoyillarini ilgari suradi.

O'quvchilarga g'oyalarni yaratish va ularni amaliyotda qo'llash va jodiy fikrlashni o'rgatadi. Muammoga boshqalar ko'rmagan nuqtayi nazarda qarashga undaydi.

Bu orqali pedagog qanday qobiliyatini namoyon qiladi?

A) **Intellectual ijodkorlik qobiliyati**

B) **Kreativ ijodkorlik qobiliyati***

C) **Maxsuldorlik ijodkorlik qobiliyati**

D) **Evtistik ijodkorlik qobiliyati**

32. Nutqning asosiy xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini belgilang:

1. Nutqning to'g'riligi va ravonligi

2. Nutqning aniqligi va ta'sirchanligi

3. Nutqning mantiqiyliigi

4. Nutqning tozaligi va ifodaliligi

5. Nutqning o'ta mulozamatililigi

A) A. 1, 3, 5

B) B. 1, 2, 3, 4*

C) C. 1, 2, 4, 5

D) D. 2, 3, 5

33. Moslashtiring

1. **Ta'lim maqsadi**

2. **Ta'lim tizimi**

A) O'quvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetentsiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko'lami tushiniladi.

B) Jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi; jamiyatning talablari va imkoniyatlari; pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari bilan bog'liqlikda aniqlashtiriladi;

C) O'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat xilligidir.

A. 1-A, 2-C

B. 1-B, 2-C*

C. 1-A, 2-B

D. 1-C, 2-B

34. Nutqning sofligi, ya'ni nutq tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi so'zlardan xoli bo'lish kerak bo'lgan so'zlar berilgan qatorni belgilang

1. Jargon
 2. Hikmatli soʻzlar
 3. Varvarizm
 4. Vulgarizm
 5. Konselyarizm
 6. Maqollar
- A) **A. 1, 3, 5, 6**
- B) **B. 1, 3, 4, 5***
- C) **C. 2, 3, 4, 5**
- D) **D. 1, 2, 3, 4**

35. Moslashtiring.

- 1. Ichki nutq.**
- A) O‘qituvchi ongida hosil boladigan, hali amalga oshmagan til elementlaridan tashkil topgan, kishining og‘iz ochmasdan fikrlashi, mulohaza yuritishi, o‘ylashi;
- B) O‘qituvchi mulohazasi va fikrining til vositasida nutq organlariga Ta’siri va harakati bilan real tovushlar sifatida yuzaga keladigan nutq;
- C) Bu nutqda esa ko‘rish va harakat (qo‘l harakati) sezgisi asosiy o‘rin tutadi;
- A. 1-A, 2-C.**
- B. 1-B, 2-A.**
- C. 1-A, 2-B***
- D. 1-C, 2-B**

36. Pedagogik jarayon kutilmagan hodisa va anglashilmovchiliklardan holi emas Bunday holatlar turli ko‘rinishdagi nizolarni keltirib chiqaradi. Agar o‘qituvchi o‘quvchining noto‘g‘ri xatti-harakatini tanqid qilmasdan, uning sabab va oqibatlari haqida gapirsa, menga sabab bo‘lgan tomonlarga nishatan muloyim va izchil muloqot orqali qanday qilib to‘g‘ri va maqbul tarzda harakat qilish mumkinligini ko‘rsata olsa,.

- A) **Majburlash usuli**
B) **Qat'iyashtirish usuli**
C) **Tazyiq qilish usuli**
D) **Tushuntirish usuli***

37. Pedagogik jarayon kutilmagan hodisa va anglashilmovchiliklardan holi emas. Bunday holatlar turli ko‘rinishdagi nizolarni keltirib chiqaradi. Agar o‘qituvchi yoki rahbarning maqsadi nizoli vaziyatni zudlik bilan bartaraf qilish hamda tartib va intizomni saqlash bo‘lsa, muammoni qat’iy va hech qanday muhokamasiz qaror qabul qilish orqali hal qilsa, pedagogik nizolarni hal qilishning qanday usulini qo‘llagan hisoblanadi?

- A) Axloq komissiyasi qarori
B) Ishontirish
C) Boshqa ishga o'tkazish
D) Kuch bilan bostirish usuli*

38. O'qituvchi kuzatuvchanlik holatini to'g'ri talqin qilish, induviduallikni inobatga olish, maqsadli kuzatishi tamoyillariga rioya qilgan holda faoliyat yuritadi. U o'quvchilarining ichki holatini, ehtiyoj va hissiyotlarini kuzatib, vaziyat va muhitga mos ravishda harakat qiladi.

Bunday pedagog qanday qobiliyatini namoyon qiladi?

- A) **Konstruktiv qobiliyatini**
- B) **Tashkilotchilik qobiliyatini**
- C) **Perseptiv qobiliyatini***
- D) **Didaktik qobiliyatini**

39. Mulohaza yuritib, matnda pedagogik kreativlikning qaysi sifati haqida gap kelayotganini aniqlang:

“Pedagog o'z ijodiy faoliyatida emotsional holatlarni chuqur his eta oladi va bu orqali o'quvchilarda keng qamrovli fasavvurni uyg'unlashtiradi. O'quvchining ruhiy holatlarini sezib, uning tuyg'ulariga nisbatan e'tiborli bo'ladi. She'r o'qish, musiqa rolli o'yin mashqlaridan keng foydalanadi.

- A) **Hissiyotga boylik***
- B) **Ijodiy yo'nalganlik**
- C) **Refleksiya qobiliyati**
- D) **Eruditsiya (bilag'onlik)**

40. Pedagog issiq kunda jismoniy tarbiya darsidan so'ng boshqa darsga kelgan bolalar diqqatini mavzuga qarata olmadi. Shuning uchun o'quvchilarni bir nechta guruhga bo'lib, ularga asosiy mavzuga doir turli yo'nalishlardagi yozma ishlarni birlashtirib, taqdimotini qilishni so'radi.

Bunda pedagog qaysi mehnat harakatlarini amalga oshirdi?

- A) **O'qitishning faol usullaridan foydalanish***
- B) **Inklyuzivlik tamoyilini amalga oshirish**
- C) **Dars vaqtidan samarali, oqilona foydalanish**
- D) **Sinfda samarali muloqotni ta'minlash**

41. Quyida berilgan maqsad va vazifalar pedagogning hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik faoliyatining qaysi mehnat harakatiga to'g'ri keladi?

Maqsadlar

- Ta'lim mihiyuni takomillashtirishda ota-onalar fikrini inobatga olish
- Ta'lim jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash Vazifalar:
- Ta'lim muhitini yaxshilash bo'yicha birgalikda qaror qabul qilish
- Tarbiya masalalarida bir xil yondashuvni ta'minlash

- A) **Ushbu sinfda dars beradigan hamkasblari bilan muayyan o'quvchilarning ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida maslahatlashish**
- B) **Muayyan o'quvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashish**
- C) **Ta'limiy masalalarni hal qilishda va o'quvchilarni hayotga tayyorlashda soha mutaxassislari bilan hamkorlik qilish**
- D) **O'quvchilarning ota-onalarini o'quvchilarning rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilish***

42. Nutqning imkoniyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini belgilang:

1. Nutq aloqa shaklidir.
2. Nutqni har bir shaxs yaratadi.
3. Nutqning hayoti esa qisqa bo'lib, u aytilgan paytdagina mavjud.
4. Ayrim shaxsning nutqi ayni zamonda faqat bitta bo'ladi, chunki u ma'lum vaqtda va ma'lum o'rinda yuz beradi.
5. Nutqning hajmi esa aniq.
6. Nutq harakatda bo'luvchi, dinamik hodisa.

A) 1, 2, 3, 4, 5, 6* B) 1, 2, 3, 4, 5

C) 1, 2, 4, 6 D) 1, 3, 4, 6

43. Sinfdagi ba'zi ko'ngilsiz hodisalarni ijobiy hal etishni jamoa faollari zimmasiga yuklash yo'llari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini aniqlang

1. Jamoada muammolarni birgalikda hal etish an'anasini shakllantirish
2. Jamoa orasidagi har qanday qiyin holatda keskin chora ko'rish
3. O'quvchilarda liderlik, mas'uliyat va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish
4. Erkin fikrlash uchun jamoada ishonch muhitini yaratish

A) A. 1, 3, 4

B) B. 2, 3, 4

C) C. 1, 2

D) D. 2, 4

44. Pedagog o'quvchilar bilan muloqot jarayonida xatolarni tanqid qilishdan ko'ra, ijobiy tomonlarini ko'rsatishga harakat qiladi. Demak tortishuv va kelishmovchiliklar yuzaga kelganda, keskinlikdan qochib, e'tiborni burish yoki mulohazali yondashuv orqali hal qiladi. Bunda o'qituvchi pedagogik texnikaning qaysi komponentini amalga oshirgan bo'ladi?

A) Maktabda ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish

B) Maktabda ta'lim-tarbiya bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni nazorat qilish va baholash

C) O'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanida saqlab, boshqara olish*

D) Ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarni bajarilishini

nazorat qilish

45. Quyida berilgan ta'rif nima haqida ekanligini aniqlang

... orqali pedagog o'zini kasbiy rolga mos ravishda boshqarish haqida o'ylaydi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari bilan ziddiyatlarga

hurmat va ishonchga asoslangan munosabat shakllantiradi. O'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab shaxsiy qadriyat va kasbiy maqsadlarini uyg'unlashtiradi.

A) Kooperativ refleksiya

B) Intellektual refleksiya

C) Shaxsiy refleksiya *

D) Kommunikativ refleksiya

46. Tilning imkoniyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini belgilang:

1. Til aloqa materiali
 2. Tilni xalq yaratadi
 3. Til aloqa shakli
 4. Ayrim shaxslar ayni zamonda bir nechta tilni bilishi mumkin
 5. Til- turg'un statik hodisa
- A. 1, 2, 3
B. 1, 2, 4, 5*
C. 2, 3, 4, 5
D. 2, 3, 5

47. Quyida o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning ijobiy va salbiy tomonlari berilgan bo'lib, ularni tahlil qilish orqali qaysi biri haqida gap ketayotganini aniqlang

Ijobiy

O'quvchi o'zini qadrlil va ahamiyatli deb bilsa, o'qish va ijtimoiy faoliyatga qiziqishi ortib boradi

Salbiy

Ba'zi o'quvchilarda ortiqcha erkalik yoki manmanlik tuyg'usi uyg'onishi mumkin.

- A) **Har bir o'quvchining psixologik ruhiy holatini o'rganib ta'sir o'tkazish**
B) **Sinf jamoasining norasmiy yetakchisi orqali ta'sir o'tkazish**
C) **Har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'lish***
D) **Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarga jazo qo'llash orqali ta'sir o'tkazish**

48. Quyida berilgan ta'rif orqali o'qituvchida pedagogik madaniyatning qaysi tarkibiy qismi shakllanganligini aniqlang.

Pedagogik o'zining va boshqa kimsalarning ichki tuyg'usini ang'lay oladi, stress va qiyin holatlarda uni qo'lga olishini biladi va uning ma'naviyatini qadrlaydi, ta'lim jarayoni ishtirokchilarini ruhlantirib, ular bilan samarali muloqotni o'rnatadi.

- A) **Baholash madaniyati**
B) **His etish madaniyati***
C) **Fikrlash madaniyati**
D) **Pedagogik dunyoqarash**

49. Pedagog o'quvchilarning diqqatini yo'qotmaslik uchun muhim fikrni o'z vaqtida aniqlib tushuntiradi. O'quvchining kayfiyati va holatini bir qarashda ang'laydi va yuz ifodasi, tana harakatlari, ovoz tembpini vaziyatga mos ravishda o'zgartiradi. Bunda dilkashlik qobiliyatining qaysi mezoniga to'g'ri keladi?

- A) **Muloqot jarayonining natijalariga qaratilgan aniq ijtimoiy munosabat bildirish**
B) **Vaqtini, suhbatdoshning ichki dunyosini, vaziyatni aniq mo'ljalga olish***
C) **Inson tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirish**
D) **Notiqlik san'atini mukammal egallaganligini namoyish etish**

50. Nutqning boyligiga nimalardan o‘rinli foydalaniladi?

- A) 1, 2, 3, 5*
- B) 1, 2, 3, 4, 5
- C) 1, 2, 3, 4
- D) 1, 3, 5

51. Pedagogik jarayon kutilmagan hodisa va anglashilmovchiliklardan holi emas. Bunday holatlar turli ko‘rinishdagi nizolarni keltirib chiqaradi. Bu pedagogik nizolarni hal qilishning huquqiy mexanizmi bo‘lib, nizoli vaziyat tomonlarning o‘zaro kelisha olmagan holatida amalga oshiriladi. Bu usul asosan o‘ta jiddiy, murakkab va huquqiy talablarga y beradigan nizolarni adolatli hal qilishda qo‘llaniladi. Pedagogik nizolarni hal qilishning qanday usuli haqida gap ketyapti?

- A) **Suhbat** B) **ishontirish** C) **Rahbar buyrug‘i** D) **Sud qarori usuli** *

52. Pedagogning o‘qituvchiga xos san’at sirlarini puxta egallash, o‘quvchi shaxsiga o‘gir ta’sir etadigan, uning ruhiyatini jarohatlaydigan iboralarni ishlatmaslik yo‘llari to‘g‘ri ko‘rsatilgan variantni aniqlang

1. Asabiy holatda o‘quvchilar bilan muloqotga kirishmaslik
2. Muloqotda ovoz tempini o‘rtacha va ishonchli va tabiiy qo‘llash
3. Jazo metodlaridan foydalanishda qo‘pol va dag‘al so‘zlarni ishlatish
4. Salbiy bahoni ham ijobiy shaklda ishlatish

- A) **A. 2, 3, 4** B. 1, 2 C. 1, 2 D. 1, 2, 4*

53. **Pedagog o‘quvchining birdan kayfiyatini tez sezadi va uni tushunishga harakat qiladi. Qiyin vaziyatda uni qo‘llab-quvvatlaydi. Ta’lim jarayonida kutilmagan holatda tez moslashadi. Shunga yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatni his qilib, tezda oldini oladi. Bu holat pedagogik dilkashlik qobiliyatining qaysi mezoniga to‘g‘ri keladi?**

- A) Empatiya va o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan o‘tkir zehnga ega bo‘lish**
- B) Inson tafakkurining o‘ziga xos xususiyatlarning muvofiqligi**
- C) Muloqot jarayonida suhbatdoshini tushunish va qo‘llab-quvvatlash**
- D) Vaqtni, suhbatdoshining ichki dunyosini, vaziyatni aniq mo‘ljalga olish***

54. Pedagog o‘zini bachkana qiliqlar, ortiqcha harakatlar, pedagogik etikaga to‘g‘ri kelmaydigan bema’ni so‘zlardan o‘zini qar’iy tiyish holatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan variantlari berilgan qatorni toping.

- 1) O'quvchilarni masxara qilish, hazillarni haddan tashqari oshirishdan qochish
- 2) Qo'pol ishoralar, ortiqcha xatti-harakatlar qilish
- 3) O'quvchi sha'ni va qadr-qimmatini saqlash
- 4) Pedagogik etikaga to'g'ri kelmaydigan so'zlarni ishlatmaslik

A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3, 4 C) 1, 3, 4* D) 1, 2, 4

1. Moslikni toping. Ta'lim metodlari 2. Ta'lim vositalari.

- A) Ta'limning amalga oshirish usuli, shakli va maqsadiga ko'ra turlanishi:
- B) O'quv jarayonida qo'llanilib, uning samarasini ta'minlovchi uchublar majmuasi
- C) O'qitish samaradorligini ta'minlovchi obyektlar va subyektlar omillar

A) 1-A, 2-B B) 1-A, 2-C C) 1-B, 2-A D) 1-B, 2-C*

55. **Berilgan ta'rifga mos atamani toping.**

Bu- o'quvchining ma'lum xatti-harakatlariga jamoa yoki uning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan subyektlar oldida baho berish usuli.

A) Uyaltirish* B) Tanbeh berish C) Kamsitish D) Jazolash

56. **Moslikni toping**

1. Ta'lim jarayoni 2. Ta'lim

- A) Insonning tabiat, jamiyat va tafakkur haqida to'plagan va ongida aks etgan haqqoniy ma'lumotlar majmuasi
- B) O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikda bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda va shaxsni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik jarayon
- C) Shaxsda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirishga **qaratilgan** tizimli jarayon

A) 1-A, 2-B B) 1-A, 2-C C) 1-B, 2-A D) 1-B, 2-C*

1. Moslashtiring. 1. Ta'lim turlari 2. Ta'lim shakli

A) Mazmuni, tashkil etilish oʻrni, bosqichi, qoʻllaniladigan vositalari va taʼlim oluvchilarning yoshiga koʻra farqlanuvchi taʼlim koʻrinishlari

B) Taʼlim jarayonining tashkiliy qurilishi

C) Oʻquv jarayonida qoʻllanilib, uning samarasini taʼminlovchi uslublar majmui

B) 1-A, 2-B*

B) 1-A, 2-C C) 1-B, 2-A

D) 1-B, 2-C

57. Pedagogning dars jarayonida hissiy ilmiy aqliy bilim berishda belgilangan muayyan psixologik va fiziologik meʼyorlarga asoslanish yoʻllari toʻgʻri koʻrsatilgan javob variantini aniqlang.

1. Oʻquvchilarning yosh psixologik xususiyatlariga moslashish

2. Kichik sinflarda koʻproq tahlil, yuqori sinflarda esa vizual materiallardan foydalanish

3. Oʻquvchilarning diqqat davomiyligini inobatga olish

4. Ogʻir mavzularni asta sekin, qiziqarli va tushunarli tarzda tushuntirish

A) 2, 3, 4

B) 1, 3, 4*

C) 1, 2

D) 1, 2, 4

58. Pedagog oʻquv dasturi va taʼlim standartlari asosida darsning maqsad va vazifalarini belgilaydi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni rejalashtiradi, oʻquv jarayonini tizimli tashkil etadi. Bunda oʻqituvchida pedagogik madaniyatning qanday tarkibiy qismlari shakllangan boʻladi?

A) **Pedagogik loyihalash madaniyati***

B) His etish madaniyati

C) Fikrlash madaniyati

D) **Pedagogik dunyoqarash madaniyati**

59. Pedagog oʻz darslarida oʻquvchilarni diqqat bilan eshitishga harakat qiladi. Ularning mimika, pantomimikasini kuzatib, nutq ohanglari orqali hissiyotlarini aniqlaydi. Sinf ichidagi munosabatlarni sotsiometriya va psixodiagnostika usullari orqali tahlil qiladi. Shunda oʻqituvchi pedagogik texnikaning qaysi komponentini mahoratli qoʻllagan hisoblanadi?

A) **Oʻqituvchilar bilan muloqot jarayonini toʻgʻri tashkillashtirish**

B) Ta'lim- tarbiya jarayonida o'z xatti-harakatlarini boshqarish

C) Nutq texnikasini bilish, o'z o'rnida qo'llash

D) Mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyat*

60. Quyida berilgan ta'rif nima haqida ekanligini aniqlang.

.... -- orqali pedagog o'quvchilari bilan to'g'ri, aniq va samimiy aloqani yo'lga qo'yish haqida o'ylaydi. Tinglash, tushunish va javob qaytarish ko'nikmasini takomillashtiradi. Nutqi va xulq-atvorining boshqalarga ta'sirini anglashga va tahlil qilishga harakat qiladi.

- A) - **Kommunikativ refleksiya***
- B) **Intellectual refleksiya**
- C) **Kooperativ refleksiya**
- D) **Shaxsiy refleksiya**

61. Pedagogning emotsional- his-tuyg'ular va kechinmalar, stress va affect holatlarda o'zini boshqara olish yo'llari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini aniqlang

- 1. Turli vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlash
 - 2. Javob berishdan avval 3-5 soniya sukunat saqlash
 - 3. O'quvchi xatti-harakatini tushunishga intilish
 - 4. Haqoratli va tahqirlovchi so'zlardan foydalanish
- A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3* C) 1, 2 D) 1, 2, 4

62. Mulohaza yuritib, matnda pedagogik kreativlikning qaysi sifati haqida gap ketayotganini aniqlang:

“Pedagog o'z fikrlarini qiziqarli va ta'sirchan uslubda yetkazib, o'quvchilar diqqatini darsga jalb qiladi. O'zining ijodiy ish uslubi va ilhomi(imkoni) bilan boshqalarni ham ijodkorlikka chorlaydi.

O'quvchilar qalbida fanga qiziqish uyg'otadi, diqqatini darsga jalb qiladi.

- A) **Mantiqiy fikrlash**
- B) **Ijodiy yo'nalganlik**
- C) **Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik***
- D) **Tanqidiy fikrlash**

63. Moslikni toping

1. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish

2. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash

A) Jinsi, millati, madaniyati, ona tili, dini, oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy holati yoki alohida ehtiyojlaridan qat'iy nazar, har bir o'quvchiga o'qish va sinf hayotida qatnashish uchun teng imkoniyatlar yaratish

B) Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot va sinfdan tashqari ishlarida qo'llash

C) Darsning maqsadlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'zlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish

A) **1-A, 2-B**

B) **1-A, 2-C**

C) **1-B, 2-A ***

D) **1-B, 2-C**

64. Pedagog o'quvchida masuliyat intizom va o'z o'zini baholash qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilarning faoliyati intizomi va bilimni baholaydi. Ta'lim tarbiya jarayonida belgilangan maqsad va talablarning qay darajada bajarilayotganini muntazam kuzatib boradi. Shunda o'qituvchi pedagogik texnikaning qaysi komponentini amalga oshirgan bo'ladi

A) **Belgilangan tartib asosida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va tashkil etish**

B) **Maktabda ta'lim tarbiya bilan bog'liq bo'lgan ijodiy faoliyatni tashkil etish***

C) **O'quvchilar bilan pedagogik muloqot jarayonini bor muvozanatda saqlab, boshqara olish**

D) **Ma'lum bir reja asosida o'z oldiga qo'yilgan talablarning bajarilishini nazorat qilish**

65. O'qituvchi faol anglash verbal va noverbal belgilarni anglash, sabr va diqqat tamoyillari asosida faoliyat yuritadi. O'qituvchi gapirayotganda diqqatni to'liq unga qaratadi hamda so'z orasida yoki harakatlarda yashirin signallarni payqashga harakat qiladi. Bu orqali pedagog qanday qobiliyatini namoyon etadi?

A) **Shaxsning ichki va tashqi qobiliyati**

B) **Eshitish va his qilish qobiliyati***

C) **Mantiqiy muloqot qilish qobiliyati**

D) **Voqealarni oldindan ko'ra bilish qobiliyati**

Moslikni toping

1. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish	A) O'quvchilarning qiziqishlarini uyg'otib, ular bilan ishlash; mustaqil ishning mazmuni, vazifalari va shakllarini tanlash
2. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash	B) Bolalar jamoasida ishbilarmonlik, do'stona muhitni qo'llab-quvvatlash
	C) Favqulodda yoki xavfli vaziyatlarda malakali harakat qilish, kerak bo'lganda, birinchi yordam ko'rsatish

66.

1-A,2-B 1-A,2-C 1-B,2-A 1-B,2-C*

67. Moslikni toping.

1. Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish	a)Nizoli vaziyatlarni yetarli darajada hal qilish
2. Xavsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash	b) O'quvchilarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash
	c) Tarbiya ishlarini olib borishda o'quvchilarning jinsi, Yoshi, madaniy va individial xususiyatlarini inobatga olish
A) 1-a, 2-c B) 1-b, 2-c C) 1-c, 2-a* D) 1-b, 2- a	

67. Quyida berilgan maqsad va vazifalar pedagogning o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish sohasining qaysi mehnat harakatiga to'g'ri keladi?

Maqsadlar	Vazifalar
Kasbiy konptensiyani oshirish	Kasbiy aloqalar o'rnatish
Tajriba oshirish va ilg'or amaliyotni ommalashtirish	Yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish, muommolarni yechishda yangi yo'llar bilan bo'lishish.
A) O'quvchilarga individual ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z vaqtida differensial yordam ko'rsatish B) O'quvchilarning ehtoyojlarini inobatga olgan holda rivojlanishiga hissa qo'shish C) Seminar treninglarda shuningdek kasbiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tadbirlarda qatnashish* D) O'z faoliyatini fanlararo kompetensiyalar predmetining integratsiya tamoyillarini inobatga olgan holda rejalashtirish	

68. **Didaktik tamoyillarni ta'riflari bilan moslashtiring.**

1.Pedagogik hamkorlik	a)O'qituvchining o'quvchidan bilim, intizom va ma'suliyat talab qilish jarayonida adolatli, asosli va me'yorida yondashishi
2.Oqilona talabchanlik	b)Shaxsning qadr- qimmat, huquq va erkinliklarini e'zozlash uning ma'naviy intellektual va jismoniy rivojlanishini ta'minlash
	c) O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida teng huquqli, o'zaro hurmat va ishonchga asoslangan hamkorlikda bilim olish jarayonini tashkil etish

- A) 1c2a*
B) 1a2c
C) 1a2b
D)1c2b

69. **Diksiyaning asosiy xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javob variantlarini belgilangan.**

1. Aniqlik va tozalik
2. Bo'g'in va tovush aniqligi
2. Nutq apparati barcha a'zolarining birgalikda ishlashi
3. Tovushlarning rang-barangligi.
4. Til, lab va jag'ning nutqdagi faol ishtiroki

- A. 1, 4, 5
B. 1, 2, 3, 4
C. 1, 2, 3, 5*
D. 1, 3, 4

70. **Quyida berilganilardan o'qituvchining "O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quvchilar mehnat harakatlariga tegishli bo'lgan javob variantini aniqlang?**

1. Anketalar, suhbatlar, kuzatuvlar orqali individual ta'lim ehtiyojlari aniqlash.
2. O'quv materiallarini ixchashlashtirish, soddalashtirish yoki chuqurlashtirish.
3. DTS da belgilangan kompetensiyalarni o'qituvchining shaxsiy salohiyatiga asosan moslashtirish .
4. O'quvchilar qiziqadigan mavzularni bir necha fanlar orqali ochib berish.
5. O'quvchining salohiyati va o'rganish dinamikasiga asoslangan baholashni rejalashtirish.

- A) 1, 2, 3
B) 2, 3, 5

C) 1, 2, 4, 5*

D) 2, 3, 4, 5

71. Quyida berilgan ta'rif orqali o'qituvchida pedagogik madaniyatning qaysi tarkibiy qismi shakllanganligini aniqlang .

- Pedagogik o'z fikri va hissiyoti va munosabatini to'g'ri, madaniy , samimiy tarzda ifoda eta oladi , suhbatdoshini diqqat bilan eshitadi, hurmat va e'tibor bilan munosabatda bo'ladi, ortiqcha qo'pol va haqoratli so'zlar ishlatmaydi .

- A. Fikrlash madaniyati
- B. Muloqot madaniyati*
- C. Pedagogik dunyoqarash
- D. His etish madaniyati

72. Quyida berilganlardan o'qituvchining "O'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv" mehnat harakatlariga tegishli bo'lgan javob variantini aniqlang?

1. Anketalar, suhbatlar, kuzatuvlar orqali individual ta'lim ehtiyojlari aniqlash.
2. O'quv materiallarini ixchashlashtirish, soddalashtirish yoki chuqurlashtirish.
3. DTS da belgilangan kompetensiyalarni o'qituvchining shaxsiy salohiyatiga asosan moslashtirish .
4. O'quvchilar qiziqadigan mavzularni bir necha fanlar orqali ochib berish.
5. O'quvchining salohiyati va o'rganish dinamikasiga asoslangan baholashni rejalashtirish.

A) 1, 2, 3

B) 2, 3, 5

C) 1, 2, 4, 5*

D) 2, 3, 4, 5

73. Quyida berilgan ta'rif nima haqida ekanligini aniqlang.

....- orqali pedagog o'z nutqi , o'quvchilarga bo'lgan munosabati, xulqini tahlil qiladi, kamchiliklarni vaqida nazorat qilib, ularni tuzatish choralarini ko'radi. Ta'lim jarayonida o'zini nazoratli va talabchan tutadi .

- A. O'z -o'zini rivojlantirish
- B. O'z -o'zini bilish
- C. O'z -o'zini baholash
- D. O'z -o'zini nazorat qilish*

74. O'qituvchi darsda yakka hukmronlikdan ,erkin muloqot o'tib demokratik printsiplari asosida pedagogning ko'rsatilgan javob variantini aniqlang?

1. Qoidalar, vazifalar, loyihalar sinf bilan birgalikda muhokama qilishini yo'lga qo'yish.
2. Har bir o'quvchiga fikr bildirish imkoniyatini yaratish

3. Jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

4. Mustaqil qabul qilingan qarorlarni o'quvchilar ongiga singdirish.

A) 1, 2, 3* B) 2, 3, 4 C) 2, 4 D) 1, 4

75. Mulohaza yuritish, quyidagi pedagogik matnda kreativlik potensialining qaysi mezoni haqida gap ketayotganini aniqlang: "Pedagog ta'lim-tarbiya jarayonida yangi g'oyalarni ilgari surish, yangicha usullarni taklif qilish va ularni amalga oshirishda barchaga namuna bo'ladi. Dars jarayonida noan'anaviy usullar, ijodiy topshiriqlarni mustaqil ishlab chiqadi. Vaziyatdan kelib chiqib tez va aniq yechim taklif qiladi".

A) Izlanuvchanlik

B) Kreativ qobiliyat

C) Tashabbuskorlik

D) Kreativ faollik*

76. Agar o'qituvchi dars o'tishdan avval savol-javob ,konseptual kartalardan foydalansa yoki tezkor test o'tkazish darajasini aniqlab olsa, keyin o'z darslarini shunga ko'ra rejalashtirib ,o'zgartirishlar kiritisa o'zlashtirishni taqdim etishningqaysi mehnat harakatlarini amalga oshirgan hisoblanadi?

A) O'quvchilar ta'lim jarayonida to'qnashgan qiyinchiliklarini kuzatish va qayd etish.

B) Ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish

- c) O'quvchilar tomonidan bilimlarni egallash darajasini muntazam ravshda kuzatib borish.
- d) Ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish*

77. Pedagog o'zida ichki muvozanat bo'lmasa, yuz ifodasi, tana harakatlari, undagi ichki biomassasi darsga nisbatan salbiy munosabat chaqirishini biladi. Shuning uchun xotirjam va xushmuomala bo'lishi pedagogik dalkashlikning qaysi tarkibiy qismiga to'g'ri keladi?

- A) Muloqotning samaradorligi pedagogik faoliyatning turli tarkibiy qismlariga ta'sir etish;
- B) Ta'lim va tarbiyaning turli sharoitlarda o'quvchilar bilan doimiy muloqatda bo'lish;
- C) Dalkashlik va xushmuomalalikning barcha bosqichlarida ruhiy xotirjamlikni his etish;*
- D) O'qituvchining pedagogik kommunikativ ko'nikma va malakalarini doimiy egallab borishi;

78. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyatini anglab, pedagogik va psixologik bilimlar asosida faoliyat olib boradi. O'quvchilarning xususiyatlari hamda individual imkoniyatlarini hisobga olib, tarbiyaviy ta'sir etishning samarali usullaridan oqilona foydalanadi. Bunday holatda o'qituvchida pedagogik texnikaning qaysi jihatlari rivojlangan bo'ladi?

- A) O'qituvchining kasbiga xos bilimlari*
- B) O'qituvchining madaniyati
- C) O'qituvchining shaxsiy hislatlari
- D) O'qituvchining tashkilotchiligi

79. Dars maqsadiga erishish uchun uning barcha bosqichlarini amalga oshirish lozim. Pedagog uy vazifasini KAHOOT platformasi orqali tezkor test o'tkazib, yangi materialni tushuntirdi, uni mustahkamlab, o'quvchilar bilimi ni baholashga qadar uy vazifasini bajarish yo'llari haqida tushunchs berib o'tdi. Bunda pedagog qaysi mehnat harakatlarini bajardi.

- A) O'qitishning faol usullaridan foydalanish mehnat harakatlarini
- B) Sinfda samarali muloqotni ta'minlash mehnat harakatlarini
- C) Ta'lim samaradorligini ta'minlash mehnat harakatlarini*
- D) Dars vaqtidan oqilona foydalanish mehnat harakatlarini

80. Quyida berilgan ta'rif orqali o'qituvchida pedagogik madaniyatning qaysi tarkibiy qismi shakllantirilganini aniqlang: Pedagog o'zi va boshqalar faoliyati, o'z xulqi va barchasiga xolis ko'z bilan qaraydi, to'g'ri xulosa chiqarib, oqilona qaror qabul qiladi, ijobiy tomonlarini rag'batlantiradi.

- A) His etish madaniyati
- B) Baholash madaniyati*
- C) Fikrlash madaniyati
- D) Pedagogik dunyoqarash

81. Pedagogning sinf jamoasida yengil intizomni yuzaga keltirish, o'quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatini yuzaga keltirish yo'lini aniqlang.

1. O'quvchilar bilan qoidalarni muhokama qilib, ularning o'zlari qaror qabul qilishlarini ta'minlash
 2. o'quvchilarning erkin fikr bildirishi bilan bir qatorda jamoaviy qoidalarga amal qilishni ta'minlash
 3. Qoidalarga amal qiladigan o'quvchilarni jazolash usullarini shakllantirish
 4. Jamoada intizomga barcha amal qilishi lozimligini ta'kidlash
- A) 3, 4
 - B) 1, 2, 4*
 - C) 2, 3
 - D) 1, 3, 4

82. Didaktik tamoyillarni ta'riflari bilan moslashtiring.

1. Ilmiylik va tushunarlilik	a) Bilimlarning haqqoniyligi va fanga mosligi Hamda o'sha bilimlarni o'quvchi o'zlashtira oladigan darajada ifodalanishi
2. Onglilik va faollik	b) Ta'lim jarayonida o'quvchining bilimini ongli ravishda o'zlashtira olishi, o'quv faoliyatida mantiqiylik va ijodkorlikni ifoda eta olishi
	c) Material o'quvchining yoshiga, imkoniyatlariga hamda individial xususiyatlariga muvofiq hayotga yaqin bo'lishi.
A) 1-a, 2-b* B) 1-b, 2-a C) 1-b, 2-c D) 1-a, 2-c	

83. Quyida o'quvchiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning ijobiy va salbiy tomonlari berilgan bo'lib, ularda qaysi mehnat vazifasi haqida gap ketayotganini aniqlang.

Ijobiy	salbiy
O'quvchi nazariy bilimning hayotdagi foydasini ko'rsa unga ishonch bilan yondashadi.	Agar noto'g'ri yoki salbiy misollar keltirilsa, o'quvchida xato tushuncha yoki qarashlar shakllanishi mumkin.

- A) Tabiyani aniq bir maqsadga qaratib samarali ta'sir o'tkazish
B) Ta'sir ko'rsatishda tarbiyaviy ishlarning izchil olib borilishi
C) Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning hayot bilan bog'liqligi*
D) Tarbiyaning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini **hisobga olgan**.

Feruza Ikramova, Dilnoza Asadova
<https://t.me/oliytoifasari> attestatsiya

